

GLOBALLASHUV DAVRIDA XORIJIY TILLAR: ISPAN TILI

Ilhomjon Madaminovich Tuxtasinov, pedagogika fanlari doktori, professor

Dilrabo Baxronova, filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya:

Ushbu maqolada globallashuv davrida xorijiy tillarning, xususan ispan tilining o'rni va ahamiyati yoritilgan. O'zbekistonda ispan tilini o'qitish, o'rganish va rivojlantirish jarayonlari hamda O'zbekiston va Ispaniya o'rtasidagi madaniy, ilmiy va tarixiy aloqalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar:

globallashuv, xorijiy tillar, ispan tili, O'zbekiston, ta'lim, madaniyat, hamkorlik

O'zbekiston bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida barcha sohalarda islohotlar olib borayotgan, xalqaro maydonda o'zining mustahkam o'rnini yaratayotgan mamlakatdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida hukumatimiz ilm-fan va ta'limga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Yoshlarning zamonaviy bilimlar va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Ushbu jarayonlar ilm-fan sohasida yetakchi davlatlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish ehtiyojini taqozo etadi.

Ta'kidlash kerakki, yaqin kunlarda YUNESKOning 43-sessiyasining O'zbekistonning qadimiy va betakror Samarqand shahrida bo'lib o'tishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi ulkan yutuqlarini namoyon etuvchi muhim voqea ekanligini alohida ta'kidlashni istar edim. Ushbu nufuzli sessiya, nafaqat boy tariximiz va noyob madaniy merosimizni dunyo hamjamiyatiga yana bir bor ochib berish, balki global miqyosdagi xalqaro hamkorlikni yangi cho'qqilarga olib chiqish uchun noyob platforma bo'lib xizmat qiladi.

Manbalarda keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, ispan tili so'zlashuvchilar soni bo'yicha jahon miqyosida xitoy tilidan keyingi o'rinni egallaydi, amaliy muloqot va global kommunikatsiya doirasida esa u dunyoda ingliz tilidan keyin ikkinchi eng ko'p qo'llaniladigan til sanaladi. Ispan tili nafaqat Ispaniya hududida, balki Lotin Amerikasi mamlakatlarida, shuningdek, AQSh, Filippin, Ekvatorial Gvineya kabi davlatlarda ham keng miqyosda ishlatiladi.

Zamon sur'atining tezligi, biz — pedagoglar, professor o'qituvchilar, tarjimonlar va leksikografiya sohasining mutaxassislariga ilm-fan va texnologiyalardagi yangiliklarga hamnafas yashashni talab qilmoqda. Xususan, O'zbekistonda ispan tilining o'qitilishi, o'rganilishi va rivojlantirilishi jarayonida innovatsion texnologiyalar hamda ilg'or metodikalardan foydalanish

globallashuv sharoitida dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Shu bois, xorijiy tillarni o'rgatish va o'zlashtirishda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etish, xorijiy tajribani chuqur o'rganish hamda uni milliy uslubiyat bilan uyg'unlashtirish kabilar samarali vosita ekanligi o'z isbotini topmoqda. "Ispan tilining O'zbekistonda rivojlanishi: tarixiy kontekst, yangi imkoniyatlar va zamonaviy tendensiyalar" xalqaro ilmiy-amaliy anjumanini yuqoridagi qator vazifalar ijrosini ta'minlash sari qo'yilgan muhim qadam sifatida ta'kidlab, bu kabi anjumanlar turli xalqlar, mamlakatlar o'rtasida ta'lim, ilmiy izlanishlar va akademik hamkorlikni mustahkamlashda yangi imkoniyatlar ochish uchun muhim deb bilamiz. Xususan, Ispaniya, Braziliya, Argentina, Meksika, Rossiya kabi mamlakatlarning yetakchi universitetlari olimlarining anjuman doirasidagi hamkorliklari yuqoridagi anjuman nufuzi va salohiyatiga nafaqat mahalliy olimlar balki Yevropa, Amerika, Osiyo qit'alari olimlarining munosib hissasi qo'shilayotganligidan darak beradi. Ushbu anjuman sho'balari ham tilshunoslik va metodikaning dolzarb masalalarini qamrab olganligi bilan ulkan ahamiyatga ega, jumladan, Ispan tilini o'qitishda xalqaro tajribaga asoslangan samarali metodlar; O'zbekistonda va butun Markaziy Osiyoda ispan tilining dolzarbliigi: tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy kontekst; Chet tillarni o'rganishda zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt va ko'p tillilik imkoniyatlari; Lingvistika, xorijiy adabiyotshunoslik va lingvomadaniy tadqiqotlarning dolzarb muammolari; Tarjimashunoslikning zamonaviy muammolari: lingvistik va madaniy jihatlar (ekvivalentlik, adekvatlik, so'zma-so'z va erkin tarjima, audiovizual tarjima, dublyaj, subtitrlar va boshqalar).

Buyuk Ipak Yo'lining asosiy qismi o'tgan mamlakatimizda ilmiy-amaliy uchrashuvlar kelgusida ikki tomonlama tadqiqot dasturlari, talaba va professor-o'qituvchilar almashinuvi hamda innovatsion loyihalarni hamkorlikda rivojlantirishda ko'plab yangi yo'llarni ochadi. Zero, "Yangi O'zbekiston" strategiyasining global miqyosi va milliy ilm-fanni jahon darajasiga olib chiqish eng asosiy maqsad sifatida ko'rilmog'da.

Bugun hukumatimiz tomonidan dunyo mamlakatlari bilan o'zaro ilmiy va madaniy jihatdan yaqinlashtiruvchi, do'stlik va hamkorlikni mustahkamlovchi muhim islohotlar olib borilmoqda. Kelgusida bu tadbirlar ta'limda ham yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi, chet el muassasalari bilan mamlakatimiz universitetlari o'rtasida ilmiy va ta'limiy hamkorlik loyihalarini yaratish uchun qo'yilgan tamal toshi vazifasini o'taydi.

Hozirgi globallashuv davrida jahon xalqlari tili orqali ularning madaniy va kognitiv manzaralarini o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu esa zamonaviy tilshunoslikda yangi ilmiy yo'nalishlar, xususan, kognitiv tilshunoslik, konseptual tahlil, madaniy tilshunoslik kabi sohalarining shakllanishiga turtki bo'lmoqda. Til — bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va tafakkur tarzining mujassam ifodasidir. Har bir til o'zining ichki tizimi orqali ushbu tilda so'zlashuvchi xalqning dunyoni idrok etish usuli,

qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy-madaniy tajribasini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ispan tili ham o'ziga xos olam manzarasiga ega bo'lgan va dunyoda keng tarqalgan, taraqqiy etgan tillardan biri sifatida ajralib turadi.

Bugungi kunda ispan tilida ona tili sifatida so'zlashuvchilar soni 600 millionga yaqin bo'lib, bu ko'rsatkich uni eng ommaviy jahon tillari qatoriga qo'shadi. Ispan tili Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNESKO, Yevropa Ittifoqi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning rasmiy tillaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, ispan tili hozirda 22 ta mamlakatda rasmiy yoki davlat tili maqomiga ega. Bu til ingliz, fransuz, rus, arab va xitoy tillari bilan bir qatorda BMTning rasmiy va ishchi tillari safida ham e'tirof etilgan.

Turli manbalarda keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, ispan tili so'zlashuvchilar soni bo'yicha jahon miqyosida xitoy tilidan keyingi o'rinda tursa, amaliy muloqot va global kommunikatsiya doirasida esa u ingliz tilidan keyin ikkinchi eng ko'p qo'llaniladigan til sanaladi. Ispan tilidan nafaqat Ispaniya hududida, balki Lotin Amerikasi mamlakatlarida, shuningdek, AQSh, Filippin, Ekvatorial Gvineya kabi davlatlarda ham keng foydalaniladi.

Zamon sur'atining tezligi, biz — tilshunolar, tarjimonlar va leksikografiya sohasining mutaxassislariga ilm-fan va texnologiyalardagi yangiliklarga hamnafas yashashni talab etmoqda. Xususan, O'zbekistonda ispan tilining o'qitilishi, o'rganilishi va rivojlantirilishi jarayonida innovatsion texnologiyalar hamda ilg'or metodikalardan foydalanish globallashtirish sharoitida dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Shu, xorijiy tillarni o'rgatish va o'zlashtirishda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etish, xorijiy tajribani chuqur o'rganish hamda uni milliy uslubiyat bilan uyg'unlashtirish kabilar samarali vosita ekanligi o'z isbotini topmoqda.

Shu bilan birga, ispan va o'zbek tillari o'rtasidagi leksik va etimologik o'xshashliklar, tarixiy bog'liqliklar, mazkur tillardagi turli lingvistik (lingvomadaniy, sotsiolingvistik, pragmatolingvistik, va hk) tadqiqotlar olib borish zarurati va dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Jumladan, ispan tili lug'atlarida 4 mingdan ortiq arab tilidan kirib kelgan o'zlashma birliklar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari o'zbek tilida ham fonetik va morfologik moslashuv orqali uchrashi kuzatiladi. Masalan: alcázar → qasr, fulano → faloncha, azúcar → shakar, alcalde → qozi, candil → qandil kabi misollar ushbu o'zaro ta'sirlar xususiyatini yorqin ko'rsatib turadi. Yana bir qiziqarli jihat, o'zbek tilidagi "qorason" atamasi bilan ispan tilidagi "corazón" (yurak) so'zi o'rtasida ham muayyan fonetik yaqinlik mavjud. Albatta, bu atamalar orasidagi semantik bog'liqlik hali lingvistik jihatdan chuqur tahlil qilinmagan bo'lsa-da, veterinar soha mutaxassislarining fikricha, "qorason" yurak bilan bog'liq kasallik bo'lib, u yurakdan boshlanib, shu a'zoda yakunlanadi. Bu holat esa bugun dolzarb hisoblangan fanlar hamkorligi asosidagi tadqiqotlarni, ya'ni til, madaniyat va tibbiyotning kesishgan nuqtalarida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

O'zbekiston va Ispaniya o'rtasidagi munosabatlar chuqur tarixiy ildizlarga ega, ushbu

bog'liqlikni faxr bilan tilga olish joiz. Ispaniyalik sayyoh, diplomat, yozuvchi va tarixchi Rui Gonsales de Klavixo XIV asrda buyuk sarkarda Amir Temur huzurida bir yil davomida yashab, turkiy xalqlarning davlat tuzilmasi, qudrati, madaniyati va ijtimoiy hayoti haqida noyob kuzatuvlar olib borgan. Klavixoning kundaliklari va xotiralari ispan hamda turkiy xalqlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy munosabatlarni yoritishda beqiyos ahamiyatga ega yozma yodgorlik-manbalardandir. Olti yuz (600) yildirki, uning faoliyati ikki xalq o'rtasida mustahkam tarixiy ko'prik vazifasini bajarib kelmoqda.

Shuningdek, Amir Temurning Kastiliya va Leon qiroli Don Enrike III saroyiga elchilar yuborgani va, o'z navbatida Ispaniya elchilarini saltanati poytaxti Samarqandda qabul qilgani haqida ko'plab tarixiy va ilmiy manbalarda atroflicha ma'lumotlar keltirilgan. Amir Temurning ispan qiroliga yo'llagan xatlari bugungi kunda Ispaniyaning rasmiy arxivlarida saqlanmoqda. Bu holatlar ikki davlat o'rtasidagi o'zaro muloqot an'anasi qadimga borib taqalishini ko'rsatadi, va tarixiy faktlar orasida hali ham o'rganilishi kerak bo'lgan ko'plab manbalar, hujjatlar ilm egalari kutmoqda. Demak, bizning hududlarda aloqa vositasi sifatida ispan tili 600 yil ilgari qo'llana boshlangan.

Bugungi kunda ham O'zbekiston va Ispaniya o'rtasidagi aloqalar siyosiy, iqtisodiy hamda ilmiy sohalarida izchil rivojlanib bormoqda. Jumladan, 2017-yil 9- iyun kuni Qozog'istonning Ostona shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ispaniya qiroli Felipe VI o'rtasidagi uchrashuv ikki tomonlama siyosiy muloqotning muhim bosqichi bo'ldi. Shuningdek, 2019-yil 23-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4531-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston va Ispaniya o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya tashkil etildi. Afrosiyob tezyurar poyezdlarining yetkazib berilishi bo'yicha tuzilgan kelishuvlar ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarning amaliy samarasi sifatida e'tirof etildi. Ilmiy sohada ham hamkorlik kengaymoqda. Masalan, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali ispan tili, iqtisodiyot, matematika kabi yo'nalishlarda iqtidorli o'zbekistonliklar Ispaniyaning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirmoqda va doktorantura dasturlarida tahsil olmoqda. Bugungi kunda o'zbekistonlik tadqiqotchilar ispan tilida so'zlashuvchi xalqlarning tafakkur olami, tili, adabiyoti va madaniyatini tahlil qilmoqda, tarjimalar yaratmoqda, ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Bularning barchasi "yangi Klavixolar" avlodining shakllanayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda ispan tilini o'rganish tarixan yangi bosqichda rivojlanayotgan bo'lsa-da, bu boradagi ilk sa'y-harakatlar 1961-yilda boshlangan. 1992-yilda O'zbekiston va Ispaniya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilishi madaniy va ta'limiy aloqalar uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. 2009-2013-yillarda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida ispan tili

bo‘yicha maxsus fakultetning faoliyat olib borgani ushbu tilni tizimli o‘rganish va o‘qitish tarixida o‘ziga xos davr bo‘ldi. Hozirgi kunda ham O‘zbekistonda ispan tiliga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Universitetlar va til markazlarida ushbu til muntazam o‘rgatilmoqda, Ispaniyaning yetakchi OTMLari bilan talabalar almashinuvi va hamkorlik dasturlari yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa mamlakatimizda ispan tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganidan dalolat beradi.

Til – bu madaniyatlar orasidagi ko‘prik. Ispan tili orqali o‘zbek yoshlari butun bir tamaddun, dunyoga mashhur adabiyot, san’at va falsafa bilan tanishmoqda. Biz ishonamizki, ushbu kitob O‘zbekiston va Ispaniya o‘rtasidagi madaniy ko‘prikni mustahkamlashga, ispan tilini o‘rganish istagida bo‘lganlar uchun qiziqarli faktik manbaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. General Conference: 43rd Session.
<https://www.unesco.org/en/general-conference/43?hub=420>
2. Ispan tili O‘zbekistonda: tarix, taraqqiyot va istiqbol (El idioma español en Uzbekistán: historia, desarrollo y perspectivas). Bibliografik ko‘rsatkich. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar: D.Baxronova, S.Shabanova. – Toshkent, 2025. – 218 b.